

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– mart holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **833 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarni ning ulushi **1,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **631 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-mart oyida viloyatimizda 922 korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 186 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 % ga oshgan hamda ularning soni 291 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxona va tashkilotlar soni 640 ta (4,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16265 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Buxoro shahrida (32,6 %), G'ijduvon (10,6%), Romitan (7,5 %) va Buxoro tumani (6,9 %) tumanlaida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	Birlik	jamiga nisbatan %	Birlik	jamiga nisbatan %
Buxoro viloyati bo'yicha	17189	100,0	16265	100,0
<i>tumanlar:</i>				
Olot	592	3,4	532	3,3
Buxoro	1283	7,5	1126	6,9
Vobkent	843	4,9	822	5,0
G'ijduvon	1847	10.7	1719	10.6
Kogon	890	5,2	824	5,1
Qorako'l	888	5,2	824	5,1
Qorovulbozor	308	1,8	297	1,8
Peshku	1063	6,2	1035	6,4
Romitan	1258	7,3	1226	7,5
Jondor	1138	6,6	1063	6,5
Shofirkon	1046	6,1	941	5,8
<i>shaharlar</i>				
Buxoro sh	5452	31,7	5301	32,6
Kogon sh	581	3,4	555	3,4

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat



01.01.2018 y.



01.04.2018 y.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,6 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 5,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 21,2 % savdoda, 13,9 % sanoatda, 10,1 % qurulishda, 9,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,8 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 2,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,

■ Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

■ Sanoat

■ Qurilish

■ Savdo


■ Tashish va saqlash

■ Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar


■ Axborot va aloqa

■ Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

■ Boshqa tarmoqlar




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-mart holatiga 922 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 25,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (275 ta), Romitan (103 ta), G'ijduvon (68 ta) va Qorako'l tumanlarida (66 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (21 ta), Olot (31 ta) hamda Vobkent (38 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi boshqa turlarda (242 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (163 ta), sanoatda (140 ta) va savdoda (139 ta), tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (14 ta), tashish va saqlashda (28 ta) va sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (28 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-mart holatiga.	2018 yil yanvar-mart holatiga.
Jami:	736	922
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	188	163
Sanoat	175	140
Qurilish	66	102
Savdo	116	139
Tashish va saqlash	38	28
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	51	66
Axborot va aloqa	11	14
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	21	28
Boshqa turlari	70	242

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi savdoda (-2,2 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,6 f.p.), sanoatda (-0,3 f.p.) axborot va aloqada (0.), kamayganligi, buning natijasida boshqa faoliyat turlarida (+2,2 f.p), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,7 f.p), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,6 f.p), qurilishda (+0,5 f.p), hamdatashish va saqlashda (+0,1 f.p) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.04.2018 y.	01.04.2017 y.	farqi (+ -)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,7	4,3	-1,6
Savdo	21,2	23,4	-2,2
Axborot va aloqa	1,3	1,3	0
Sanoat	13,9	14,2	-0,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9,8	9,2	0,6
Qurilish	10,1	9,6	0,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,3	5,6	0,7
Tashish va saqlash	6,8	6,7	0,1
Boshqa turlari	27,9	25,7	2,2

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 aprel holatiga 13268 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3018 ta, oilaviy korxonalar – 728 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 9141 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 26 tani va boshqalar 355 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 97 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 16 taga yoki 19,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 65 tasi qo'shma korxonalar, 32 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar 56 ta (57,7 %), Kogon tumani 7 ta (7,2 %) va Vobkent tumanlari 7 ta (7,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Kogon shahri 2 ta (2,1 %), Qorovulbozor tumani 2 ta (2,1 %), G'ijduvon tumani 1 ta (1,0 %) va Shofirkon tumani 1 ta (1,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 59 ta (60,8 %), savdoda 13 ta (13,4 %), boshqa turlarida esa 10 ta (10,3 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'r-satishda 1 ta (1,0 %), axborot va aloqada 1 ta (1,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo-'jaligi 2 ta (2,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 ta (7,2 %) va qurilishda 4 ta (4,1 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 7 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga ko'paygan yoki 1,7 baravarga oshgan.

Bunda, Eron Islom Respublikasi – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 1 ta, Rossiya Federativ Respublikasi—1ta, Koreya Respublikasi– 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan va boshqa davlat rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 1 ta, savdoda 3 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1 ta, qurilishda 1ta, yashash va ovqatlanishda 1ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 13132 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 7,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4496 tasi (34,2 %) Buxoro shahriga, 1404 tasi (10,7 %) G'ijduvon, 1009 tasi (7,7 %) Romitan, hamda 918 tasi (7,0 foizi) Buxoro tumanlari hissalariga to'gri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13132 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3424 tasi (26,1 %) – savdoda, 2214 tasi (16,9 %) - sanoatda, 1621 tasi (12,3 %) - qurilishda, 1556 tasi (11,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1012 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1088 tasi (8,3 %) - tashish va saqlashda, 193 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 367 tasi (2,8 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1657 tasi (12,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart holatiga 762 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 6,6 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (248 ta), Romitan (85 ta), G'ijduvon (57 ta) va Kogon tumanlarida (51 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (19 ta), Olot 23, Vobkent (31 ta) hamda Jondor (36 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (163 ta), sanoatda (140 ta), savdoda (137 ta) va qurilishda (102 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (14 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (28 ta) hamda tashish va saqlashda (28 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 771 tani tashkil etib, ulardan 728 tasi yoki 94,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **29,9 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 27,3 % yoki 199 tasi sanoat, 30,2 % yoki 220 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,9 % yoki 101 tasi savdo, 14,8 % yoki 108 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,1 % yoki 8 tasi qurilish, 0,8 % yoki 6 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 2,2 % yoki 16 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 8,7 % yoki 63 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: F.Xakimova
(0371) 230-83-20,21



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan